



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 13-iyun, shanba,
70 (23.791)-son

**KUN
HIKMATI**

O'z kasbini
puxta egallash
hali komillik
degani emas

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Triatlon bo'yicha musobaqalar o'tkazildi

9-, 10- va 11-iyun kunlari Samarqandda paratriatlon bo'yicha ilk bor Osiyo chempionati, triatlon bo'yicha Osiyo kubogi va O'zbekiston chempionati bahslari o'tkazildi.



Paratriatlon bo'yicha Osiyo chempionati bilan boshlangan musobaqa 10-iyun kuni Osiyo kubogi bahslari bilan davom etdi.

Musobaqaning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vaziri Adham Ikromov, Xalqaro triatlon federatsiyasi prezidenti Marisol Kasado va mamlakatimiz triatlon federatsiyasi mas'ullari ishtirok etib, sportchilarga muvaffaqiyat tiladi.

Dastlab ayollar o'rtasidagi bellashuvlar o'tkazildi. Unda to'qqiz davlat vakillari 1500 metrga suzish, 40 kilometr velosiped poygasi va 10 kilometr yugurish bahslarida g'oliblik uchun kurash olib bordi.

Bellashuvlarda Slovakiya vakilasi Ivana Kuriachkova marra chizig'ini birinchi bosib o'tib, oltin medalni qo'lga kiritdi.

Erkaklar o'rtasidagi bahslarda esa qozog'istonlik Ayan Beisenbayev Osiyo chempioni bo'ldi. Hamyurtimiz Aleksandr Kurishov uchinchi o'rinni egalladi.

Shuningdek, Osiyo kubogi bahslari doirasida Markaziy Osiyo triatlon assotsiatsiyasi birinчилиги ham o'tkazildi. Unda oltin va bronza medallarni qozog'istonlik Ayan Beisenbayev va Dariyan Konishbayev qo'lga kiritgan bo'lsa, hamyurtimiz Aleksandr Kurishov kumush metall bilan kifoyalandi. Ayollar bellashuvlarida esa sportchilari-mizning qo'li baland keldi va Alina Hakimova birinchi o'rinni egalladi.

11-iyun kuni triatlon bo'yicha O'zbekiston chempionatida 300 nafar ishtirokchi standart va super-sprint masofalarida elita, U-23, 15-17 yoshlar va 16-19 yoshli o'smirlar o'rtasida triatlon bo'yicha milliy va yoshlar terma jamoasiga saralash bahslarida ishtirok etdi.

Musobaqada professional sportchilar olimpiya dasturida 1500 metr masofaga suzish, 40 kilometr velosiped poygasi, 10 kilometr yugurish, havaskorlar esa super-sprint dasturida 350 metr masofaga suzish, 13 kilometr velopoyga, 3 kilometr yugurish bahslarida o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazdi.



Chempionatning taqdirlash marosimida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov, Xalqaro triatlon federatsiyasi prezidenti Marisol Kasado, O'zbekiston triatlon federatsiyasi raisi Viktor Mahmudov ishtirok etib, musobaqa g'oliblariga diplom, pul mukofoti va esdalik sovg'alarini topshirdi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov kecha Qozog'iston Respublikasining Samarqand shahridagi Bosh konsulxonasiga borib, Abay viloyatida sodir bo'lgan yirik o'rmon yong'inlari oqibatida insonlar halok bo'lgani munosabati bilan marhumlarning yaqinlari va Qozog'iston xalqiga samarqandliklar nomidan hamdardlik bildirdi. Konsulxonada tashkil etilgan hamdardlik daftariga o'z izhorlarini yozib qoldirdi.

O'rmon yong'inlarida qozog'istonliklar qurbon bo'lgani sababli 12-iyun Qozog'istonda milliy motam kuni deb e'lon qilingandi.



FOZIL YO'LDOSH IZDOSHLARI YOSHLAR FESTIVALIDA

“Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostidagi festivalning navbatdagisi Bulung'ur tumanida o'tkazildi. Har bir tadbir-da iste'dodli yoshlarni izlab topish va ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, tumanda o'tkazilgan o'ziga xos tadbirlardan biri “Fozil Yo'ldosh izdoshlari” tanlovi bo'ldi. Unda 10 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 10 nafarga yaqin yoshlar ishtirok etdi.



- Tanlovda ma'lum bo'ldiki, tumanimizning faxri bo'lgan baxshi bobomiz Fozil Yo'ldosh izidan boradigan yoshlar talaygina ekan, - deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi rahbari Akmal To'rayev. - Har bir ishtirokchining chiqishini hakamlik qilgan taniqli baxshilar e'tirof etdi. Ayniqsa, eng yosh ishtirokchi, tanlovda ikkinchi o'rinni egallagan 18-umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Asilbek Nabiyeovning do'mbira chertishi, termalar kuylashi ko'pchilikni hayratlantirdi.

Tanlovda birinchi o'rinni 5-maktabning 4-sinf o'quvchisi Zahridin Suyunboyev egallagan bo'lsa, uchinchi o'rin 71-maktab 9-sinf o'quvchisi Firdavs Suyunboyevga nasib etdi.

To'liq SIDDIQOV.

Jamoatchilik monitoringi:

Qurilishlarda kamchiliklar aniqlandi

Davlat va hududiy dasturlarning joylardagi ijrosini jamoatchilik nazorati tartibida o'rganish “Yuksalish” umummilliy harakati faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Harakat tomonidan bu borada muntazam monitoring yuritilib, aniqlangan muammo va kamchiliklarga yechim topish yuzasidan mu-tasaddi idoralar bilan hamkorlikda ish olib boriladi.

“Yuksalish” umummilliy harakati viloyat bo'linmasi tomonidan Taraqqiyot strategiyasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha viloyat jamoatchilik guruhi a'zolari hamda jamoatchilik vakillari Past Darg'om, Ishtixon va Qo'shrabot tumanlarida 2022-yilda qurib, foydalanishga topshirilishi belgilangan ko'p qavatli uylar, ta'lim va tibbiyot muassasalaridagi holatni o'rgandi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi qaroriga asosan, Samarqand viloyati hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi buyurtmachiligida Qo'shrabot tumanidagi 5-umumta'lim maktabida amalga oshirilgan rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari holati o'rganilganda bir qator kamchiliklar borligi aniqlandi, - deydi “Yuksalish” umummilliy harakati Samarqand viloyati bo'linmasi rahbari Elyor Hamroyev. - Umumiy qiymati 1 milliard 513 million so'mlik mazkur obyekt 2022-yil 25-avgustda foydalanishga topshirilgan. Ammo qurilish smetasi ko'zdan kechirilganda maktabda ko'mirxona va hojatxona qurilmagani, ishlar sifatsiz bajarilgani, bino devorlarida yoriqlar paydo bo'lgani, bino atrofi muhofaza qilinmaganligi kuzatildi. Maktab binosi uchun alohida transformator ajratilgan bo'lsa-da, shu paytgacha tarmoqqa ulanmagan.

Shu tumanning Zarmitan mahallasida “Zarkent Baxt savdo” mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 2022-yil yakuniga qadar 40 xonadonli 2 ta ko'p qavatli uy-joy qurilib, foy-

dalanishga topshirilishi kerak edi. Afsuski, shu paytgacha binoning bittasi foydalanishga topshirilgan, ikkinchisida qurilish ishlari haligacha yakunlanmagan. Birinchi binoda ham kamchiliklar ko'p. Avvalo, uyga kirish qismida nogironligi bor fuqarolar uchun alohida yo'lak qilinmagan, uyni yon tomonlarida ham yo'laklar yo'q. Hududlarni obodonlashtirish ishlariga ham yetarli darajada e'tibor berilmagan.

Past Darg'om tumanidagi 88-umumta'lim maktabida “Mansur sifat qurilish” mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan bajarilgan qurilish-ta'mirlash ishlarida ham ko'plab nuqsonlar borligi ma'lum bo'ldi. Misol uchun, maktab binosi suv va oqova tarmog'iga ulanmagan. Sinfxonalar eshiklari sifatsiz o'rnatilgan, konditsioner qo'yilmagan.

Ishtixon tumani Besh bola mahallasida ichki suv nasosi (agregati) qurish orqali qishloq xo'jaligi yerlari hamda fuqarolar tomorqa yerlarini sug'orish uchun jamoatchilik fikri asosida “Fuqarolar jamg'armasi” mablag'lari hisobidan 2022-yilda 2 ta suv nasosi ishga tushirilgan. Afsuski, 2023-yilning may oyiga kelib, suv quvurining yorilishi natijasida bitta suv nasosi yaroqsiz holga kelgan. Ikkinchisidan ham samarali foydalanilmayotgani haqli e'tirozlarga sabab bo'ldi.

Shu tumandagi Qora qo'yi mahallasida aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish

maqsadida 150 ta beton ustun va 2 ta transformator va ko'cha chiroqlari o'rnatish uchun “Fuqarolar jamg'armasi”dan 1 million 200 million so'm mablag' ajratilgan. Ammo beton ustunlar va transformatorning bittasi hozirgi kunga qadar tarmoqqa ulanmagan.

Tumandagi 81-umumta'lim maktabida “XOLIS BAHO” mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshirilgan 4 milliard 57 million so'mlik rekonstruksiya ishlarida ham bir qator kamchiliklar aniqlandi.

Misol uchun, binoning isitish tizimi ishlamasligi oqibatida maktab o'qituvchilari tomonidan hashar yo'li bilan boshqatdan qurilgan. Maktab binosining zinolari sinib, yorilib ketgan. Binoning fasad qismi to'kilgan, devorlar yorilgan, maktab sport zaliga jihozlar o'rnatilmagan.

“Yuksalish” umummilliy harakati 2021-yildan buyon “Pandemiya sharoitida O'zbekistonning chekka qishloq hududlaridagi ehtiyojmand aholi qatlamlarining qaror qabul qilish jarayonlardagi ishtirokini oshirish” loyihasini amalga oshirmoqda. Samarqand viloyati hokimligi bilan hamkorlikda bajarilayotgan loyiha-da Paxtachiy tumanidagi Gulobod va Do'ng, Qo'shrabot tumanidagi Yuqori Jo'sh va Toz mahallalari qamrab olingan. Afsuski, o'tkazilgan monitoring tadbirlarida Toz mahallasida belgilangan ishlar oxiriga yetkazilmaganligi aniqlandi.

Monitoring davomida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha xalq deputatlari viloyat va tumanlar Kengashlariga ma'lumotnomalar kiritildi.

Dilnoza BOZOROVA.

[Dolzarb mavzu](#)

Ertachi TARVUZ dorilangan bo'ladimi?

Yoxud poliz mahsulotlarini tanlashda qanday xatoga yo'l qo'yayotganligimiz xususida



Ko'pchilik bolaligida “Ertachi tarvuz dorilangan bo'ladi”, deb eshitgan bo'lsa, ajab emas. Tarvuz va qovun singari poliz mahsulotlarini kechroq, ya'ni saraton quyoshini ko'rganidan keyin xarid qilgan yaxshiroq, degan tushuncha ham shundan kelib chiqqan. Xo'sh, aslida ham shundaymi? Yoz boshlanmasdan ko'chayu bozorlarimizni to'ldirgan tarvuz va qovunlar rostdan ham kimyoviy o'g'itlarning “kuchi” bilan yetiladimi? Yaxshi tarvuzni qanday farqlash mumkin?

“QASHQADARYO TARVUZLARI 17-APRELDA PISHGAN EDI”

Birinchi xato ertachi tarvuzlar faqat kimyoviy o'g'itlar yordamida yetiladi, deya hisoblashimiz bo'lsa kerak. To'g'ri, aslida barcha poliz ekinlarini parvarishlash davomida ma'lum miqdorda kimyoviy o'g'itlardan foydalaniladi. Biroq ularning me'yordan oshirishi va tarvuzning erta yetilishini o'zaro bog'lashga qanday asosimiz bor? Ayni savolga javob topish maqsadida Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala tumani fermerlari bilan bog'landik. Jumladan, Qashqadaryo viloyati “Tarvuz-qovun yetishtiruvchilar” assotsiatsiyasi rahbari, 25 yillik tajribaga ega bobodahqon Ulug'bek Jumanazarovning javobi shunday bo'ldi:

— Haqiqatan ham ko'pchilik dorilangan tarvuz va qovunlar erta pishadi, deb o'ylaydi. Ammo bu noto'g'ri. Qashqadaryoda bu yil tarvuz 17-apreldan boshlab bozorlarga chiqariladi. Buning uchun mirishkor dehqonlarimiz 1-dekabr sanasida issiqxonalarda urug' qadagan edi. Ko'chatlar ikki oy davomida shu zayl parvarishlandi hamda 10-fevraldan dalalarga, uch qavat plyonka bilan o'ralgan maxsus ko'chma issiqxonalariga ko'chirildi. Bu usulda ekilgan ko'chat havo harorati -12 darajaga qadar sovisa ham nobud bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib aytishim mumkin, dalalarni qalin qor qoplagan vaqtda ham bizning tarvuzu qovunlar o'sishda davom etadi. To'liq 80 kun bo'lganda ular yetilib, bozorlarga chiqariladi.

(Davomi 4-sahifada) >>>

Mahalliy Kengashlarda

Kommunal xizmatlar samaradorligi deputat nazoratida

Mamlakatimizda kommunal sohaga davlat budjetidan ajratmalar yildan-yilga oshib bormoqda. Qaratilayotgan alohida e’tibor tufayli ushbu yo‘nalishda katta o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda.

Ammo xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashida xalq vakillarining saylov okruglaridagi uchrashuvlari davomida fuqarolardan infratuzilmani yaxshilash, xususan, qurish, rekons-truksiya qilish va ta’mirlash borasida ko‘plab murojaatlar kelib tushmoqda.

Shu bois 2022-2023-yillarda o‘tkazilgan sessiyalarda tuman hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘ka-lamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarining to‘rt marta, “Paxtachi-tumangaz” gaz ta‘minoti bo‘limi bosh-lig‘ining 5 marta, ichimlik suvi ta‘minoti bo‘limi rahbarining to‘rt marta, tuman obodonlashtirish bo‘limi hamda tele-kommunikatsiya bog‘lamasi boshliqla-rining ikki martadan, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘ining bir marta hisoboti eshitilgan.

Albatta, hisobotlar yuzasidan te-gishli qarorlar qabul qilingan. Qabul qilingan qarorlar ijrosi Kengash kotibi-yati tomonidan nazoratga olinib, ijro holati nazorat-tahlil tartibida o‘rganildi. O‘rganish natijalarida sohada amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, hali yechilishi lozim bo‘lgan tizimli ma-salalar mavjudligi aniqlandi.

Shu bois tuman Kengashi depu-tatlari tomonidan 2022-2023-yillarda kommunal sohaga oid 118 ta depu-tatlik so‘rovi chiqarildi. Jumladan, obodonlashtirish bo‘limiga 40 ta, elektr energiyasi masalasida 37 ta, gaz ta‘minoti bo‘yicha 24 ta, suv ta‘minoti yuzasidan 10 ta, yo‘l qurilishiga tegish-li 6 ta va “Toza hudud” DUKga 1 ta so‘rov yuborilgan.

Deputatlar so‘rovlarida ko‘tarilgan masalalarning 32 tasi ijobiy hal etilgan, 54 tasi dasturga kiritilgan va 39 tasi bo‘yicha tushuntirish berilgan.

Ma‘lumot o‘rinda aytilish lozimki, ayni shu yo‘l bilan saylovchilarni o‘ylantirib kelayotgan bir qator muammolar hal etilgan. Misol uchun, R.Magripovaning deputat so‘rovi asosida Sadaf ko‘chasi-ning 1 kilometr qismiga tosh-shag‘al yotqizilib, ichimlik suvi o‘tkazildi. F.Ken-jayevning deputat so‘rovi natijasida Nurafshon ko‘chasida ma‘nan eskirgan simyog‘ochlar almashtirildi. Nurafshon mahallasi Jasorat ko‘chasining 500 metr

qismiga tosh-shag‘al yotqizilishi hamda 13-umumta‘lim maktabining internet tar-mog‘iga ulanishi J.Qurbonovning depu-tat so‘rovi natijasida amalga oshdi.

Albatta, sohaga oid nazorat tad-birlari shu bilan yakunlanmaydi. Bu borada tuman mahalliy budjetining daromadlarining oshirib bajarilgan qis-mi hisobidan shakllangan qo‘shimcha manbalarni yo‘naltirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Qayd etish lozim-ki, ushbu masala Kengash sessiyalari-da 9 marta muhokama qilingan.

Muhokama natijalari qanday bo‘ldi, degan savolga javob o‘laroq aytilish mumkinki, tuman hududida joylashgan qator mahallalarda aholi xonadon-lariga tortilgan elektr tarmoqlari ya-roqsiz holga kelib qolganligi sababli simyog‘ochlarni beton ustunlarga almashtirish taklifi berilgan edi. Shun-ga ko‘ra, Mirkan mahallasida 7 ta, Urg‘uch va Chashma mahallalarida 10 tadan, Toma mahallasida 14 ta, Faro-von Yo‘ldoshobod mahallasida 15 ta, Qo‘shhovuz mahallasida 20 ta, Mirzo Nodim mahallasida 24 ta beton ustun o‘rnatilib, 130 million so‘m mablag‘ sarflandi.

Bundan tashqari, Go‘ro‘g‘li va Qo‘shhovuz mahallalarida piyodalar yo‘lagi va ko‘cha yoritkichlar uchun 1 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Nay-man, Chorgo‘sha va Yobu mahal-la fuqarolar yig‘inlari hududida 253 million so‘m mablag‘ asosida piyodalar yo‘lakchasi tashkil qilindi. Ko‘rpa va Do‘ng mahallalari ko‘chalariga shag‘al-tosh yotqizish uchun tuman obodon-lashtirish boshqarmasiga 65 million so‘m mablag‘ ajratildi. Shuningdek, M-37 yo‘l yoqasidagi piyodalar yo‘lagi-ni joriy ta‘mirlash, F.Ochilov nomli ko‘chada piyodalar yo‘lakchasi qurish uchun tuman mahalliy budjetidan 206 million so‘m mablag‘ sarflandi.

Bundan tashqari, 2022-yil 1-cho-rak yakuni bilan 13 ta taklif bo‘yicha 5 milliard 929,4 million so‘m mab-lag‘ jamoatchilik fikri asosida ajratil-di. 2022-yil 2-mavsumda g‘olib deb topilgan loyiha takliflarga 5 milliard 288 million so‘m va joriy yil 1-mavsum yakuni bo‘yicha 7 milliard 240 million so‘m ajratildi. 2022-yilda ochiq budjet orqali g‘olib bo‘lgan loyihalar bo‘yicha rejalashtirilgan ishlar oxiriga yetkazildi.

Bir so‘z bilan aytganda, tumanda kommunal sohaning mavjud infratuzil-masini sifatli saqlash, yangi qurilish va rekonstruksiya ishlari deputatlarning doimiy nazoratida.

F.BERDIYOROV, xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashi deputati.

Prezidentimizning 2020-yil 29-sentyabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilishi chiqindi tashishdagi muammolarning bartaraf etilishiga yordam bermoqda. Jumladan, davlat-xususiy sherikchilik asosida ish olib borayotgan Nurobod tumanidagi “Gold Marjonabegim” MCHJ, Payariq tu-manida “Shoximardon Asqarov” oilaviy korxonasi, Kattaqo‘rg‘on shahrida “Kattaqo‘rg‘on obod servis” MCHJ sanitar tozalash korxonalari tomonidan kuniga 500 tonnadan ziyod maishiy va qattiq chiqindilar olib chiqilyapti.

Qachon chiqindidan pul topishni o‘rganamiz?

Keyingi yillarda maishiy chiqindilarni tashib ketish muammosi dolzarb bo‘lib boryapti.

Biroq hamma tumanlarda ham ish ko‘ngildagidek tashkil etilgan deb bo‘lmaydi. Viloyatimizning 8 tumanida “Toza hudud” DUKning filiallarini tu-gatish ishlari yakuniga yetgani yo‘q. Viloyat hokimining topshirig‘iga asosan ular ham ikki oy ichida tugatilib, tender asosida tadbirkorlarga o‘tkazilishi kerak. Jumladan, Jomboy tumanida ham “Toza hudud” davlat unitar korxonasi tuman filiali tadbirkorlar qo‘liga o‘tgani yo‘q.

Sohani davlat-xususiy sherikchilik asosida tadbirkorlarga topshirish maqsa-dida tender o‘tkazish uchun e‘lon ber-ganmiz, - deydi Jomboy tumani hokimligi bosh mutaxassisi Sherzod Suvonov. – Hozirgacha 10 nafarga yaqin tadbirkor tenderda qatnashish istagini bildirgan. Arizalarni o‘rganib chiqishda ularning mazkur sohada tajribasi, jamoa bilan ishlash ko‘nikmasi shuningdek, texnika-lari bor-yo‘qligini aniqlayapmiz. Hozircha “Toza hudud” DUK tuman bo‘limi xizma-tidan foydalanib kelyapmiz.

Bugungi kunda mazkur korxonada 60 nafar ishchi-xizmatchi mehnat qiladi. Ular 20 ga yaqin maxsus texnikalar yordami-da kuniga 70-80 tonna qattiq va maishiy chiqindilarni tashib chiqarishadi.

Tumandagi 38 mahallaning 30 tasi-da yashovchi 30 ming iste‘molchi bilan chiqindilarni tashib ketish uchun shart-nomalar tuzilgan, - deydi “Toza hudud” DUK tuman bo‘limi boshlig‘i Baxtiyor Rajabov. – Bir hafta davomida barcha mahallalarni aylanib, chiqindilarni poli-

gonga chiqarib tashlaymiz. Ayrim yirikroq mahallalarga haftasiga 2 kun borishimiz-ga to‘g‘ri keladi. Biroq chekka hudud-lardagi Nogahon, Olmazor, Polvonariq, To‘qqizboy, Qo‘ng‘irot kabi 8 ta mahalla bilan shartnoma tuza olmadik. Sababi maxsus texnika va ishchi yetishmaydi. Tan olish kerak, ayrim texnikalarimizga yoqilg‘i hamda zarur butlovchi qismlarda uzilish bo‘lib turadi.

Korxonada pullik xizmat ham yo‘lga qo‘yilgan. Suyuq chiqindilarni tashish xizmatida oyiga 10 million so‘mgacha foyda olinmoqda. 20 nafar nazoratchi tomonidan kuniga 10 million so‘mdan ziyod to‘lov yig‘ilmoqda. Ammo korxona-ning davlatdan 2 milliard 530 million so‘m qarzi bo‘lgani holda uni to‘lash ancha murakkab bo‘lmoqda. Aprel oyi rejas-i 274 million bo‘lsa-da, nazoratchilar to-monidan 256 million so‘m pul terib olindi. Bu qarzni qoplab, yana samarali xizmat ko‘rsatish uchun korxonaga yana qancha yil kerak bo‘lar ekan-ba?

Tumandagi 800 dan ziyod korxona va tashkilotning 667 tasi bilan shartnoma tuzilgan, - deydi korxona bosh muhandisi Nurilla Islomov. – Tuman hududida 140 ta maxsus quti o‘rnatilgan, Toshkent va Shodlik mahallalarida esa chiqindi yig‘ish shoxobchalari tashkil etilgan. Barcha ijtimoiy soha obyektlarida ham chiqindi qutilar qo‘yilgan.

Yaqindan boshlab tuman markazidan ancha olisda bo‘lgan Nayman qish-log‘iga ham haftasiga bir marotaba “Toza hudud” maxsus mashinalari qatnay bosh-ladi. Ko‘chama-ko‘cha aylanib, signal usulida ishlayotgan yuk mashinalari har

safar 12 tonnadan ziyod qattiq va maishiy chiqindilarni olib chiqa boshladi.

Mahallamizda maxsus chiqindi-xona yo‘qligi sababli har bir xonadon o‘z chiqindisini bir joyga to‘plab yoqib yuborar yoki dala yoqasiga, ariq va zovurlarga tashlab yuboradi, - deydi naymanlik Sodiq Rahimov. - Oqibatda qishlog‘imiz ekologiyasi buzilib, atrof-muhit ifloslanib qoldi. O‘tgan yili mahal-la raisi qishlog‘imiz faollari bilan masla-hatlashib, “Toza hudud” mashinalarini ham mahallamiz ko‘chalarini aylanib, chiqindilarni tashib chiqarish imkoniya-tini o‘rganib, shartnoma tuzishga qaror qilishdi. Endi birorta burchakda chiqin-di uyumini ko‘rmaysiz. Mashinalar har hafta seshanba kuni kelib, chiqindilarni olib ketadi.

Tumanda 7 gektar joyni egallagan chiqindi poligoniga kuniga 26 ta mashina yordamida 80 tonnaga yaqin maishiy va qattiq chiqindi kelib tushadi. Biroq ular-ning barchasi rekultivatsiya, ya‘ni zarar-sizlantirilib, ko‘mib yuboriladi. Chiqindi saralaydigan ishchilar yo‘q. To‘g‘rida, bulganda ham qayerga olib borardi? Chunki tumanda davlat-xususiy sherik-chilik asosida ishlaydigan tadbirkorlar yo‘q. Qog‘oz, metall, plastmassa kabi zarur bo‘lgan chiqindilarni qayta ishlay-digan kichik korxonalar tashkil etilmagan.

Xullas, Jomboy tumanida ham chiqindilarni tashib chiqarish va ularni saralaydigan tadbirkorlik subyektlariga muhtojlik sezilmoqda. Buning uchun tender tanlovlari o‘tkazilib, tadbirkorlarni aniqlab, klasterlarni tashkil etish zarur.

Dilmurod TO‘XTAYEV.

Qon topshiring, hayot davom etsin!



14-iyun - Butunjahon donorlar kuni munosabati bilan viloyat qon quyish markazi jamoasi joylarda shu shior ostida turli aksiyalar, viktorinalar, davra suhbatlari tashkil qilmoqda.

Markaz shifokorlarining Samarqand shahridagi 5-oilaviy poliklinika xodimlari bilan birgalikda tashkil etgan navbatdagi aksiyasi Samarqand tumani Yan-giravot mahallasida o‘tkazildi.


Aksiya davomida shu mahallada yashovchi yigirma nafardan ziyod fuqaro ixtiyoriy ravishda qon topshirdi.

Aziza JABBOROVA, viloyat qon quyish markazi shifokori.

14-iyun - Xalqaro donorlar kuni

Bemorlarga umid bag‘ishlab...

Har kuni dunyoda minglab insonlar donor qoniga ehtiyoj seza-di. Donorlik - odamlarga yaxshilik qilishning eng oddiy ko‘rini-shi bo‘lib, ushbu beg‘araz, ko‘ngilli yordam qonga ehtiyoji bor insonlar uchun haqiqiy ko‘makdir. Donor qon topshirar ekan, kimningdir hayotini saqlabgina qolmay, o‘z sog‘lig‘ini saqlash-ga ham erishadi. Chunki mutazam tibbiy ko‘rikdan o‘tib turish va qon tahlillarini topshirish, kishi salomatligi haqida ma‘lumot-ga ega bo‘lib borishiga xizmat qiladi.



Jahon sog‘liqni saqlash tashki-loti tavsiyasiga binoan, qon tarkibiy qismlari va preparatlariga bo‘lgan ehtiyojni qoplash uchun har 1000 aholiga nisbatan 40-60 nafar donor kerak bo‘ladi. Bizning yurtimizda esa har 1000 kishiga qon topshiruv-chilar 4-8 nafarni, viloyatimizda esa 9 nafarni tashkil qilmoqda.

Mamlakatimizda 18 yoshdan 60 yoshgacha, vazni 50 kilogramdan yuqori, gemogloblin miqdori me‘yori-da bo‘lgan (erkaklarda 128 g/l, ayollarda 120 g/l) har bir shaxs do-nor bo‘lishi va yiliga to‘rt marta qon topshirishi mumkin. Har bir topshiril-gan qonning maksimal miqdori 450 millilitrga teng.

2005-yil may oyida Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining xalqaro Assambleyasida dunyo davlatlari sog‘liqni saqlash vazirlari yakdillik bilan beg‘araz qon donor-ligini ko‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi taklifni ma‘qullagandan buyon har yili 14-iyun – Xalqaro donorlar kuni sifatida keng nishonlanadi. Yurtimiz-da ham ushbu sanaga bag‘ishlan-gan turli tadbirlar, xayriya aksiyalari o‘tkazish an‘anaga aylangan.

Viloyatimizdagi bitta qon quyish stansiyasi va 19 ta qon banki bo‘lim-lari tomonidan joriy yilda 17 ming litr qon tayyorlash rejalashtirilgan bo‘lib, joriy yilning o‘tgan davrida 12575 nafar donordan 5320 litr qon olin-di. Olingan qon 9 turda tekshirilib, xavfsiz qon komponentlari sifatida davolash profilaktika muassasalariga yuborildi. Sayyor guruhimiz tomoni-dan o‘tgan to‘rt oy davomida 6575 nafar donordan 2794 litr qon olindi.

Prezidentimizning 2022-yil 9-av-gustdagi “Respublika qon bilan ishlash xizmati muassasalari faoli-

Azimjon ALIYEV, viloyat qon quyish markazi IFA laboratoriyasi mudiri.

Bosh prokuratura huzuridagi Maj-buriy ijro byurosi viloyat boshqar-masining qidiruv shu‘basi tomoni-dan qarzdorlarni aniqlash, ularning mol-mulklarini topish va ijroga yo‘naltirish yuzasidan tadbirlar o‘tkazilmoqda.

21 nafar qarzdor oilasi bilan yarashdi

Yil boshidan buyon uyushtirilgan tez-kor tadbirlar natijasida aliment to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan 166 nafar fuqaro ham-da qidiruvda bo‘lgan 112 ta avtotransport vositalari topildi. Aliment to‘lashdan qo-chib yurgan 107 nafar qarzdor fuqaroga nisbatan ma‘muriy javobgarlik choralari ko‘rildi. Ulardan 86 nafari qarzdorlikdan qutuldi, 21 nafar qarzdor o‘z oilasi bi-lan yarashtirildi. Ayni paytda yurituvda bo‘lgan ijro ishlari yuzasidan 96 nafar qarzdor shaxslarni qidirish ishlari davom ettirilmoqda. Ulardan 45 nafari chet elga chiqib ketganligi aniqlandi. Bugunga-cha qarzdorlarga nisbatan davlatlararo qidiruvni amalga oshirish bo‘yicha so‘rov-nomalar jo‘natilgan.

Qidiruvda bo‘lgan qarzdorlarni aniqlash bo‘yicha huquqni muhofaza qilish organ-lari bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda. Bunday qarzdorlardan 51 nafariga nisbatan mahalliy qidiruv yuritilyapti.

To‘rajon JALILOV, Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi qidiruv shu‘basi inspektori.

“Safedi” oromgohida uch viloyat bolalari sog‘lomlashtirilmoqda

Dunyoda ayrim sanalar bayram sifatida nishonlansa, ba‘zilari qaysidir muammoga e’tibor qaratish uchun belgilanadi. 12-iyun – Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurash kuni sifatida nishonlandi.



Sana munosabati bilan Samarqand-dagi oromgohlarda qator tadbirlar tashkil etildi.

Xususan, Samarqand tumanidagi “Safedi” sog‘lomlashtirish oromgohida o‘tgan tadbirida Ta‘lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi raisi Ravshan Bedilov va viloyatdagi mas‘ullar ishtirok etib, mamlakatimizda bolalar mehnatining muhofazalanganligi, yoshlarning bilim olishi va kasb-hunar o‘rganishi uchun yaratilgan imkoniyatlar, shuningdek, sog‘lomlashtirish oromgoh-la-rida bolalarning bo‘sh vaqtlari mazmunli tashkil etilganligini alohida ta’kidladilar.

Tadbir doirasida bolalar o‘rtasida turli tanlov va sport musobaqalari o‘tkazilib, g‘oliblarga esdalik sovg‘alari topshirildi.

Shundan so‘ng 335 nafar bolajonni

bag‘riga olgan “Safedi” oromgohida yaratilgan sharoitlar ko‘zdan kechirildi.

Bolalar yozni soz o‘tkazishi kerak, - deydi oromgoh direktori Nigora Jab-borova. – Shu bois bu yilgi mavsumda bolalarning dam olishi uchun barcha sharoitlarni yaratdik. Jumladan, sport maydonchasi, kutubxona, kompyu-ter xonasi, basseyn va konsert uchun sahna bolajonlar ixtiyorida. Ayni payt-da oromgohda 200 nafar buxorolik, 72 nafar navoiylik va 63 nafar samarqandlik bolajonlar sog‘lomlashtirilmoqda. E’ti-borlisi, bolalar uchun 23 nafar malakali tarbiyachi va yetakchilar jalb qilingan bo‘lib, ularning 5 nafari samarqandlik, 18 nafari esa Buxoro va Navoiy viloyat-laridan birlashtirilgan tarbiyachilardir.

G‘ulomjon ERKAYEV.

BOSH MAQSAD – HUQUQIY DAVLAT BARPO ETISH, ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATI QURISH

Siyosiy maydonda xalqchil va hayotiy g'oyalari bilan o'z o'rni va obro'siga ega bo'lgan O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi o'z nomzodining dasturi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi oldidan Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat va barcha uchun farovonlik ta'minlangan adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning sotsial-demokratik modelini taklif etmoqda.

Hammamizga yaxshi ma'lum, yaqindagina bo'lib o'tgan referendumda xalqimiz alohida faollik, katta ishonch bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qo'llab-quvvatlab ovoz berdi. Albatta, buning zahirida katta hayotiy haqiqat, xalqimiz orzu qilgan yangi hayotni qurish maqsadi muajassam. Zero, adolatli jamiyat, demokratik, huquqiy davlat qurishga azmu shijoat qilgan el borki, avvalo, farovonlik yo'lidagi islohotlarni o'z Konstitutsiyasida aks ettirishga, bunda inson qadr-qimmatini, uning huquq va erkinliklarini barcha qadriyatlardan ustun qo'yishga harakat qiladi.

Albatta, yangi tahrirdagi Asosiy Qomusimizning qabul qilinishi masalaning bir qismi, xolos. Galdagi asosiy vazifa Konstitutsiyaning ustuvor talab, me'yor va tamoyillarini hayotga tatbiq etish, ulardan elimizning farovon hayoti, munosib turmush tarzini yanada yaxshilashda samarali foydalanishdan iboratdir. Toki xalqimiz Bosh Qomusimizning hayotbaxsh ruhini his etib tursin.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan O'zbekiston Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudova **xalqimizning**, shu jumladan, partiyaning **asosiy elektorati bo'lgan** yuqori malakali mutaxassislar, budget sohalari xodimlari, pedagoglar, shifokorlar, muhandis-texnik va ilm-fan, xizmat ko'rsatish sohalari vakillarining hayoti va farovonligi yanada yuqori darajaga ko'tarilishini maqsad qilgan holda, o'z dasturida qator ustuvor vazifalarni ilgari surmoqda.

Dasturda konstitutsiyaviy ahamiyatga molik tushunchalar, xususan, huquqiy davlat, ijtimoiy adolat, milliy iqtisodiyot, ilm-fan, innovatsiyalar, ta'lim, aholi salomatligi, fuqarolik jamiyati, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni kabi ko'plab davrimiz uchun dolzarb bo'lgan yo'nalishlar qamrab olingan.

PIROVARD MAQSAD – HUQUQIY DAVLAT QURISH

Dasturda alohida ta'kidlab o'tilganidek, **"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi uchun oliy qadriyat bu — inson, uning huquq va erkinliklaridir!**

E'tiborli tomoni shundaki, dasturning deyarli beshdan bir qismini tashkil etgan birinchi yo'nalish mamlakatimizda **huquqiy davlat bunyod etish mavzusiga** bag'ishlangan. Sababi inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, har bir shaxsning qadr-qimmatini e'zozlash erkin va adolatli jamiyatning ajralmas xususiyatidir. Shu bois, dasturda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun, birinchi qalda, sudlar mustaqilligini ta'minlash va shu maqsadda **sudyalarimiz xalq deputatlari kengashlariga axborot berish amaliyotini bekor qilish** taklifi ilgari surilgan.

Bundan ko'zlangan maqsad, avvalambor, Asosiy Qomusimizda sudlarga doir bo'lgan talablarni hayotga tatbiq etish yo'li bilan ularning chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan.

Hammamizga ma'lum, hozirda sudyalarimiz xalq deputatlari Kengashlarida muntazam ravishda o'z faoliyati xususida bergan axborotlari davomida o'zlari tomonidan chiqarilgan sud qarorlari, ayrim paytlarda esa hali yurituvda bo'lgan va nihoyasiga yetmagan ishlar bo'yicha savol-javob qilishga majbur bo'lmoqda.

To'g'ri, deputatlarimiz ham o'z saylovchilari manfaatidan kelib chiqib savol-javob qilishi tabiiy, lekin bu, bugun biz mustaqil deb atayotgan sudlar faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashish emasdir? Bir qator ilg'or xorijiy mamlakatlarda bunday holat sudlar mustaqilligiga tahdid soladigan omil sifatida baholanadi.

Shu bois, **yangilangan Konstitutsiyamizning 130-moddasida** sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritishi, **136-moddasida** esa sudylar hisobdor bo'lmasligi qat'iyl belgilanib, ularning faoliyatiga aralashish omillari bartaraf etildi.

Shu bilan birga, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan nomzod sudlarni hayotda haqiqatan adolat qo'rg'oniga aylantirishga erishish maqsadida **sudyalar sonini ko'paytirish, ularning ixtisoslashuvini yanada kengaytirish**, jumladan, **oilaviy, mehnat, intellektual mulk, voyaga yetmaganlar huquqlarini** himoya qilishga oid nizolar bo'yicha ixtisoslashtirilgan sudyalar korpusini shakllantirishni taklif etadi.

Sudyalar faoliyatidagi bunday o'zgarishlar odil sudlov sifat va samaradorligini ko'tarishga qaratilgan. Agar masalaga oddiy ko'z bilan qarasak, shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi zamonada hayotimizning barcha jabhalariga tegishli ko'plab yangi qonunlar qabul qilib borilmoqda.

Bunday vaziyatda har qanday yuqori bilimli va katta tajribaga ega huquqshunos ham barcha sohalardagi o'zgarishlarni mukammal o'zlashtirib, qamrab olishi qiyinligini inkor etib bo'lmaydi. Eng asosiysi, **sud resurslaridan oqilona foydalanish, fuqaro va tadbirkorlar sansolarligining oldini olish** uchun sudylarning sohalar bo'yicha ixtisoslashuvini kengaytirish zarur bo'ladi.

Masalan, oilaviy sudlar AQSh, Xitoy, Germaniya, Singapurda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Xususan, 2022-yil davomida O'zbekistonda **56 intellektual, 58 ming 403 soliq, 40 ming 198 oilaviy nizolar, 48 ming 857** voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ish ko'rib chiqilgani, bu ishlarining barchasi ixtisoslashmagan sudyalar raisligida hal etilganligi masalaga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Shuning uchun hozirda eng dolzarb hisoblanadigan sohalar, ya'ni **oilaviy, mehnat, intellektual mulk, voyaga yetmaganlar huquqlarini** himoya qilish masalalari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan sudylar orasidan tanlab olib, ularni ixtisoslikka yo'naltirish kerak bo'ladi.

Jamiyatda qonun asosida yashash hayot tarzimizga aylanishi zarur. Buning uchun eng avvalo, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashimiz shart. Bu borada Konstitutsiyamizda ilg'or huquqiy mexanizmlar ko'zda tutilgan bo'lib, jumladan, **davlat xizmatiga ishga kiradigan har bir xodimni Konstitut-**

ADOLAT SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI



siyani bilishi bo'yicha sinovdan o'tkazish lozimligi haqidagi taklif ilgari surilgan.

Bunday tartib joriy etilishi, albatta, o'z samarasini bermay qolmaydi. Chunonchi, Asosiy Qonunimizning qat'iy mezonlaridan xabardor ish beruvchi rahbar hech qachon qo'l ostida ishlovchi xodimga nisbatan noqonuniy yo'l tutmaydi, shu bilan birga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'ladi. Zero, qonunlarni bilgan oddiy fuqarolar ham huquqbuzarlikdan yiroq bo'ladi. Demak, bu orqali biz mamlakatimizda huquqbuzarliklar sodir bo'lishining ham oldini olib ko'lamiz.

Umuman olganda, partiya dan ko'rsatilgan nomzod amaldagi qonunchilikka kiritilgan ilg'or normalarni hayotimizga izchillik bilan tatbiq etishda faol qatnashishini ma'lum qilgan.

Huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri, shubhasiz, bu — insonning huquq va manfaatlari to'laqonli ta'minlanishidir. Bunda esa **advokatura institutining o'rni va roli** beqiyosdir. Shu bois **yangilangan Konstitutsiyamizning XXIV bob 141-142-moddalarida advokatlar maqomi mustahkamlanib**, ularning prokuror bilan teng konstitutsiyaviy maqomga ega ekanligi qayd etilgani nihoyatda ahamiyatlidir. Shu bilan bir qatorda, advokatura institutini rivojlantirish borasida navbatdagi qadamlarni qo'yishda, jumladan, ular uchun huquqiy me'yorlarda belgilab berilgan vakolat va imkoniyatlar hayotga to'laqonli tatbiq etilishida O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzodning o'z qarashlari bor, albatta.

Bu maqsadga erishish uchun advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish joiz. Ayniqsa, **advokatura, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlari hamda boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvini** yanada yaxshilash choralarini ko'rish taklif etilmoqda.

Shuningdek, dasturda kam ahamiyatli xatolar uchun notariuslar faoliyatini to'xtatib turish amaliyotiga barham berish, **birinchi marotaba yoki qo'pol bo'lmagan xatolar uchun notariuslarga jarima qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish** taklif etilgan. Chunki hududlarda shusiz ham yetarli bo'lmagan notariuslarning faoliyati vaqtincha to'xtatib turilishi orqasidan oddiy fuqarolar turli ovoragarchiliklarga duch kelmoqda. Bu, o'z navbatida, ularning haqli noroziliklariga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi mahalliy ijroiya hokimiyati organlari ustidan deputatlik nazoratini kuchaytirish orqali xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining rolini oshirish tarafdori. Ushbu yo'nalishda partiya davlatda boshqaruv intizomini saqlab qolish maqsadida xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari hokimlarga nisbatan ishonchsizlik bildirish huquqiga ega bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.

IJTIMOIY ADOLATNI QAROR TOPTIRISH YO'LIDA

An'anaviy sotsial-demokratiyaning ijtimoiy adolat tamoyili va keng ko'lamli dasturlarining amalga oshirilishini ta'minlaydigan kuchli ijtimoiy davlat siyosatini qo'llab-quvvatlayotgan O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi barcha sohalarda ijtimoiy adolatni qaror toptirishni o'zining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etadi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda **har kimning uy-joyli bo'lish huquqi** belgilangan. Ushbu normaning amal qilishi **har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o'z boshpanasiga ega bo'lishini ta'minlab**, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchiligimizda **hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi** mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda **teng qiymatda** (bozor qiymatida) **qoplanishi** ta'minlanishi kafolatlanmoqda.

Nomzod dasturida mazkur konstitutsiyaviy qoidani ta'minlash uchun **o'z daromadli bilan uy-joyli bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan fuqarolarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish** choralarini ko'rish belgilangan. Jumladan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va bu yo'nalishda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha **"Ijtimoiy davlat — 2030"** dasturini ishlab chiqish taklifi ilgari surilmoqda.

AHOILI SALOMATLIGI — ULKAN BOYLIK

Nomzod **davlat hisobidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalari ro'yxatini takomillashtirish, ijtimoiy dori-xonalarni rivojlantirish, og'ir kasalliklarni davlat tomonidan**

davolashni kengaytirishni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuvlar ortidan bemorlarga haddan ziyod ko'p dori sotib olishga undash avjiga chiqib ketganligi bor gap va bu salbiy holat barchamizni tashvishga solmoqda.

Afsuski, O'zbekiston antibiotiklar iste'moli bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlarga chiqib ketdi. Tibbiyot muassasalaridagi ayrim tadbirlarga ochiqchasiga farmatsevtika tashkilotlari tomonidan homiylik qilinadi. Bunga chek qo'yish vaqti keldi. Millat sog'lig'i va genofondi ham shu masalalarga bog'liq.

Tibbiyot sohasidagi bunday munosabatlar to'g'ridan-to'g'ri korrupsiya sifatida baholanishi lozim. Tibbiyotchilar va farmatsevtlar o'rtasida noqonuniy muloqot to'liq taqiqlanishi kerak, bunday muloqotlar va **yeng ichida berilayotgan sovg'alar uchun jazo muqarrar bo'lishi**, yangi dorilar va davolash uslublari faqat vazirlik tomonidan tushuntirilishi lozim. Umuman, partiya dan nomzod tibbiyot sohasidagi davlat xaridlari bo'yicha alohida tartib belgilash tarafdori.

Shunday qilsa, dorilarning yagona elektron bazasini yanada takomillashtirish orqali **dori-darmonlarning noqonuniy aylanmasiga, farmatsevtika va tibbiyot xodimlari o'rtasidagi yashirin kelishuvlarga hamda dorilar narxining asossiz oshirilishiga** chek qo'yiladi.

Dasturda sog'liqni saqlash tizimini ijtimoiy davlat tamoyiliga muvofiqlashtirgan holda **"O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash kodeksi"** loyihagini yanada takomillashtirish, unda sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilish, aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'lishini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Zero, aholining kafolatlangan **tibbiy xizmatlardan foydalani**shni yangilangan Asosiy Qomusimizda ham o'z aksini topgan. Bu aholi sog'lig'ini ishonchli muhofaza qilish hamda onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda juda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod nodavlat tibbiyot tashkilotlarini **tijorat tashkilotidan notijorat tashkilotiga o'tkazish** bo'yicha amaliy choralarni ko'rish tarafdori. Bunda xususiy tibbiyot muassasalarining ham pirovard maqsadi faqat daromad olish emas, balki raqobatbardoshlik muhitida aholiga sifati va kafolati tibbiy xizmat ko'rsatishga qaratilgan bo'lishi lozim. Zero, insonning eng katta boyligi bo'lgan salomatligini saqlashga qaratilgan tibbiyot daromad olish manbaiga aylanmasligi kerak.

TA'LIM RIVOJI — TARAQQIYOTIMIZ KAFOLATI

Ma'lumki, yangilangan Konstitutsiyamizning 52-moddasida **davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi**, ularning ijtimoiy va moddiy jihatdan farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi haqidagi norma o'z aksini topdi.

Shundan kelib chiqib, **nomzod dasturida** o'qituvchining obro'-e'tibori — bu avvalo, millatning, butun xalqning obro'-e'tibori ekaniga alohida urg'u berilgan. Partiya pedagog xodimlarning nufuzini oshirish hamda yuksak maqomini belgilash orqali ularning jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy choralarni ko'rish tarafdori. Shu maqsadda **o'qituvchining maqomiga oid qonunning tezroq qabul qilinishi** dasturda ustuvor masala sifatida e'tirof etilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichida zamonaviy ilm-fan texnologiyalarining tatbiq etilishi muhim rol o'ynaydi. Shu bois nomzod **2024/2025 o'quv yilidan** boshlab, oliy ta'lim muassasalarining **bakalavriat yo'nalishiga kirish uchun ingliz tilini bilish** bo'yicha milliy yoki xalqaro sertifikatga **ega bo'lish tartibini joriy etishni** taklif qiladi. Bu, o'z navbatida, talaba yoshlarimizning xalqaro darajada raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Dasturda ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali **fan — ta'lim — ishlab chiqarish** tizimlarining uzviy aloqadorligini ta'minlash lozimligi qayd etilgan. Darhaqiqat, **adolatli jamiyat va huquqiy davlat barpo etishda ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalarning ahamiyati beqiyos**. Shu sababli dasturda nafaqat olimlarni, balki ixtiro va ixtirochilarni ham qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va ularga zarur shart-sharoitlar yaratish lozimligi alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, intellektual mulk obyektlarini himoya qilish, mualliflik huquqlari buzilishi holatlariga nisbatan davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, iqtisodiyotning haqiqiy drayveri bo'lgan muhandis, texnolog, agronom-mexanizator kabi mutaxassislar sonini ko'paytirish va malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash choralari ham ustuvor vazifalar sifatida keltirib o'tilgan.

Mamlakatimizda ilmiy tadqiqotlardan olingan ijobiy natijalarni tibbiyot va sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi va biotexnologiyalar, gidrologiya va suv muammolari, energetika, muqobil energiya manbalari va resurstejamkor texnologiyalar, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kabi sohalarga joriy qilish ishlarini izchil olib borish orqali davlatning iqtisodiy qudrati yanada mustahkamlanadi, albatta.

Milliy iqtisodiyotimizning barqaror o'sishi — farovon hayotimizning kafolati. Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda iqtisodiyotning real sektorida ilmiy va innovatsion ishlarni tijoratlashtirish darajasi, ilm-fan, ta'lim va sanoat o'rtasidagi hamkorlik aloqalari nisbatan past bo'lib qolmoqda.

Shu bois dasturda mamlakatimizda **innovatsion rivojlani**shni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida **innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitalini ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish** yo'lidan borish lozimligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda respublikamizda **qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan** foydalanish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, sohada samarador loyihalar ishga tushirilmoqda. "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod muqobil energiya manbalari va resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish g'oyasini qo'llagan holda, bu jarayon rag'batlantirilishi, zarur hollarda muqobil energiya manbalari **kam ta'minlangan aholi qatlamlariga davlat hisobidan iymiyozli berilishini yanada ko'paytirish zarur**, deb hisoblaydi.

Zero, partiya mamlakatimizda sanoatni yanada rivojlantirish tarafdori. Sanoat esa elektr energiyasiz rivojlanmaydi. Buning uchun nafaqat atom energetikasi, balki muqobil elektr manbalaridan kengroq foydalanish choralarini ko'rish taklif etilmoqda.

Tabiiyki, respublikamizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ilmiy asosda tashkil etish, fan va amaliyotning o'zaro uyg'unligini ta'minlash yaqin kelajakda O'zbekistonning agrar sohadagi ulkan imkoniyatlarini ro'ybga chiqarishda, qishloq iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda, kambag'allik muammolarini hal etishda ijobiy natijalar beradi.

Biroq bugungi kunda **qishloq xo'jaligi sohasida ob-havoning keskin o'zgarishi, suv tanqisligi, yer sho'rlanishi** kabi xatarlar ortib bormoqda. Bu esa qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar hamda jismoniy shaxslarning katta muammolaridan biriga aylanmoqda.

Nomzod qishloq xo'jaligida **davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish** va **sug'urtalashning yangi mexanizmlarini** amalga oshirish tarafdori. Bu borada nomzod dasturida qishloq xo'jaligida sug'urtalash tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish, jumladan, **"Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalash to'g'risida"**gi Qonunni qabul qilish taklifi ilgari surilyapti.

Yangilangan Konstitutsiyamizning **67-moddasida monopoliya** faoliyat qonun bilan tartibga solinishi va cheklanishi **alohida belgilab qo'yilgani** bejiz emas, albatta. Zero, iqtisodiyot faqat erkin raqobat muhitidagina rivoj topadi.

Nomzod **ijtimoiy obyektlar va eng muhim strategik obyektlarda davlat mulkini saqlab qolish tarafdori**, lekin bunda fuqarolarga tanlov imkoniyatini beradigan xususiy sektor ham rivojlantirilishi kerak, deb hisoblaydi. Shundagina ijtimoiy adolat ta'minlangan bo'ladi.

Shu bilan birga, partiya ijtimoiy ahamiyatga molik, fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini uchun yanada qulay sharoitlar yaratish hamda homiylik faoliyatini kuchaytirish tarafdoridir.

FUQAROLIK JAMIYATI — DEMOKRATIK TARAQQIYOT ASOSI

Nodavlat notijorat tashkilotlarining sog'liqni saqlash, ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida muammolarni hal qilishdagi faol ishtiroki partiyaning doimiy diqqat-e'tibori markazida bo'ladi. Zero, kishilik taraqqiyoti hamisha kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari olg'a yurishdan iborat bo'lgan. Shunday ekan mamlakatimiz fuqarolarining turli nodavlat notijorat tashkilotlarida faoliyat yuritishi ayni paytda ularning huquqiy, siyosiy, ma'rifiy bilimi oshishiga, ma'naviyati yuksalishiga, vatanparvarlik tuyg'usi kuchayishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, aholining ma'naviy yuksalishi va moddiy farovonligi ortishi uchun partiya o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining, jumladan, mahallalarning taraqqiy etishini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, dasturda OAV mustaqilligi va erkinligi, jurnalistning erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yanada kengaytirish oldimzda turgan muhim vazifalardan biri ekan alohida qayd etib o'tilgan.

Albatta, **erkin matbuotsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi**. Ommaviy axborot vositalari hamma zamonlarda ham **xalq va hokimiyat o'rtasidagi ishonchli ko'pri**k bo'lib qolishi lozim.

Olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarning ochiq va ochikoraligini ta'minlashda OAVning faolligini yanada oshirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini, hokimiyat va jamoatchilikning izchil aloqasini ta'minlashda uning rolini kuchaytirish, moddiy-texnik bazasini yangilash, uni texnologik modernizatsiya qilish, jurnalist kasbi nufuzini oshirish, soha xodimlarining mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish masalalari ham dasturdan o'rin olgan.

Nomzod dasturida shu va shu kabi ko'plab ahamiyatga molik olijyanob va ezuq maqsad-vazifalar belgilangan. Ular adolatli jamiyat va huquqiy davlat qurishga — ijtimoiy islohotlar samaradorligini ta'minlash, mehnatkash xalqimiz uchun munosib farovon hayotni barpo etish, mamlakatimizda barqarorlikka va ijtimoiy adolat ustuvorligiga erishishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ishonamizki, partiyaning bunday ulug'vor maqsadlari saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi!

O'zbekiston — bizning umumiy uyimiz. Shunday ekan, uning har bir fuqarosi erkinlik va adolat, tinchlik va farovonlikda yashashga haqlidir!

Adolatli jamiyat va huquqiy davlatni birgalikda quramiz! Ona Vatanimizning barcha fuqarolarini Prezident saylovida faol ishtirok etishga chaqiramiz!

Bahrom ABDOHALIMOV, "Adolat" SDP Siyosiy Kengashi raisi.

Ertachi TARVUZ dorilangan boʻladimi?

Yoxud poliz mahsulotlarini tanlashda qanday xatoga yoʻl qoʻyayotganligimiz xususida

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Maʼlumotga koʻra, joriy yil qashqadaryolik fermerlar tarvuz urugʻining Germaniyada ishlab chiqilgan erta-chi navidan foydalangan. Viloyatda yetishtirilgan poliz mahsulotlarining uchdan bir qismi Polsha, Belarus, Qozogʻiston, Rossiya singari davlatlarga eksport qilinmoqda. Qolgani respublikamiz boʻylab sotiladi. Jumladan, oʻtgan yili qashqadaryoliklar 40 ming tonna tarvuz eksport qilgan boʻlsa, joriy yil bu koʻrsatkichni 80 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan.

QOVUN-TARVUZNI “DORILASH”DAN KIMGA QANDAY NAF?

Ulugʻbek Jumanazarovning taʼkidlashicha, fermerlar ertachi tarvuz yetishtirishda kimyoviy oʻgʻitlardan imkon qadar kam foydalanadi. Buning ikki asosiy sababi aytili. Birinchisi, bahor oylarida tarvuzning asosan kichik hajmlilari xaridorgir boʻladi. Bu omil mahsulotni eksport qilishda ham muhim hisoblanaadi. Shu bois ularni kimyoviy oʻgʻitlar bilan toʻydirib, hajmini oshirish va yetilishini kutishdan fermerlar manfaatdor emas. Bu vaqt ichida mahsulotning narxi tushishi mumkin.

Ikkinchidan, fermerlar mahsulotining bir qismini eksport qiladi, dedik. Maʼlumki, eksportga yoʻnaltirilgan poliz mahsulotlari ikki tomonlama nazoratdan oʻtkaziladi. Kimyoviy oʻgʻitga “boy” mahsulot, xorijda sotuvga qoʻyilmaydi. Yaʼni, fermer zarar qiladi. Qolaversa, mahalliy bozorlarda ham nazorat tizimi bor, zararli mahsulotni realizatsiya qilish qonun bilan taqiqlangan.

Suhbatdoshimizning aytishicha, qashqadaryolik fermerlarning eng birinchi xaridori qovun-tarvuzlarning shifobaxsh xususiyatidan bahramand boʻlishni intiq kutgan xasta insonlar hamda homiladorlar boʻlarkan. “Ularni aldash, “zaharlash” fermerlar uchun isnod”, deydi u.

SIFATI BUZILGANLARI HAM YOʻQ EMAS-KU...

Avvallari xarid qilgan tarvuzimizning aksariyatidan oq dogʻlar yoki qalin tomirlar chiqardi, qovunlar esa taʼmsiz boʻlardi. Bu holatni shu kunlarda ham onda-sonda boʻlsa-da, kuzatish mumkin. Dehqonlar bilan suhbatimizda buning sababi ham ochiqlandi.

Ularga koʻra, poliz mahsulotlaridagi bunday “buzilish” ekinlarni parvarishlashda mahalliy oʻgʻitlardan (suvda ivitilgan goʻng nazarda tutilmoqda) meʼyordan ortiq foydalanish oqibati ekan. Bugungi kunda poliz mahsulotlarini parvarishlashda toʻmchilatib sugʻorish mexanizmi joriy qilinmoqda. Xususan, Qashqadaryoda 80 foiz fermer shu usuldan foydalanadi. Toʻmchilatib sugʻorilgan poliz mahsulotlarida bunday muammo kuzatilmaydi. Shuningdek, bu usul kimyoviy oʻgʻitlarni ham meʼyordan ortiq ishlatish imkonini bermaydi.

QOVUN-TARVUZ TANLASHDA NIMALARGA EʼTIBOR BERISH KERAK?

Ulugʻbek akganay aytishicha, yetilgan tarvuzning rangi tiniq, chiziqlaridagi oq yoʻlaklari aniqroq ajralgan boʻladi. Shuningdek, uning pishgan-pishmaganligini kindigi orqali ham aniqlash mumkin. Masalan, yaxshi tarvuzning kindigi toʻliq, tekis boʻlib chiqadi. Kindigi kichik va ichiga botgan tarvuzlar yetilishga ulgurmay uzilgan boʻladi.

Ota-bobolarimiz tarvuzning yengilini, qovunning ogʻirini tanla, deb bejizga aytishmagan, - deydi suhbatdoshimiz. - Qarangki, bu usul ham maromiga yetib pishgan mahsulotni tanlashimizda asqatar ekan.

Sifat masalasiga kelsak, mutaxassis tarvuzni chertib koʻrish orqali uning yangi yoki turib qolganligini aniqlash mumkinligini tasdiqladi. Agar tarvuzdan jarangdor ovoz chiqsa, uning sifati buzilmagan boʻladi. Aks holda, uni xarid qilmagan maʼqul.

Qovunlarni tanlash juda oson, - deydi Ulugʻbek aka. - Lekin koʻpchilik bir faktni bilmaganligi uchun xatoga yoʻl qoʻyadi. Gap shundaki, toʻq sariq qovunlar yuqori ehtimol bilan sifadini yoʻqotgan boʻladi. Ular turib qolgan boʻlib, ichidan achishni boshlaydi. Yangi va foydali qovunning yonidagi chiziqlarida bir oz yashillik saqlangan boʻladi. Shu bilan birga,

qovunning sifatini uni siqib koʻrish orqali ham bilish mumkin. Qattigʻi yaxshi, yumshogʻi yomon boʻladi.

POLIZ MAHSULOTLARINI KOʻCHADAN SOTIB OLMAGAN MAʼQUL

Maʼlumki, tarvuzning tarkibida glyukoza, fruktoza va saxaroza koʻrinishida toʻplanadigan, yengil oʻzlashtiriladigan qandlar mavjud. Shuningdek, unda organizm uchun zarur boʻlgan C, B1, B2, A, foliy kislotasi, pektin moddalar, karotinooidlar, kaliy tuzlari, temir, magniy va kalsiy moddalar, aminokislotalar bor. Qovun ham foydaliligi jihatidan tarvuzdan oʻtsa oʻtadiki, ortda qolmaydi. Lekin bular faqat sifatli mahsulotga taalluqli gaplar. Sifatsiz mahsulot bundan karrasiga koʻp zarar keltirishi mumkin.

Qovun va tarvuz yetarli darajada pishmagan boʻlsa yoki uni yetishtirishda kimyoviy oʻgʻitlardan koʻp foydalanilgan boʻlsa, salomatlik uchun jiddiy xavf tugʻdirishi turgan gap, - deydi viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi ovqatlanish gigiyenasi boʻlimi mudiri Y.Rahimov. - Tartibga koʻra, poliz mahsulotlariga pishib yetilishidan 30 kun oldin kimyoviy oʻgʻit berilishi toʻxtatilishi kerak. Biroq bunga barcha dehqonlar ham amal qilmayapti. Toʻgʻri, bugungi kunda ulardagi kimyoviy moddalar meʼyordan keskin farq qilishi kamdan-kam uchraydi. Shunday boʻlsa-da, u bilan bogʻliq zaharlanish holatlari uchrab turibdi. Demak, hushyorlikni yoʻqotmasligimiz kerak.

Y.Rahimovning taʼkidlashicha, poliz mahsulotlari birinchi navbatda joylardagi maxsus laboratoriya va oʻsimliklarni himoya qilish idoralari tomonidan tekshiruvdan oʻtkazilganligini tasdiqlovchi hujjat, kelib chiqishini tasdiqlovchi sertifikatga ega boʻlishi lozim. Ammo bugun serqatnov koʻchalar chetida turnaqator boʻlib qovun-tarvuz sotayotganlarda bunday hujjatlar yoʻq. Birinchidan, ularning bu taqild savdo qilishining oʻzi qonunbuzarlik hisoblanadi. Afsuski, bunga hech kim eʼtibor qaratmayapti. Ulardagi mahsulotning sifatiga kafolat yoʻq.

Mutaxassis qovun-tarvuzdan zaharlanishning oldini olish uchun quyidagi ikki tartibga amal qilish lozimligini aytmoqda:

Birinchidan, poliz mahsulotlarini tekshiruvdan oʻtkazilganligini tasdiqlovchi hujjatsiz sotayotganlardan xarid qilmang.

Ikkinchidan, isteʼmoldan ortib qolgan, tiliklangan qovun yoki tarvuzni muzlatkichda 24 soatdan ortiq saqlamang. Sovutkichda saqlangan tiliklangan qovun va tarvuzning yuza qismini 0,5-1 santimetr qalinlikda kesib tashlashni unutmang.

ZAHARLANISH ALOMATLARI SEZILSA...

Deyarli barcha odam hayotida bir marotaba boʻlsa ham bu kasallikni boshidan oʻtkazgan, - deydi viloyat yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasi infeksionist shifokori Aziza Qurbonova. - Ayniqsa, pishiqchilik vaqtida odamlarning zaharlanish holati koʻproq kuzatiladi. Biroq aybni faqat qovun va tarvuzga agʻdarish notoʻgʻri. Gigiyena qoidalariga amal qilmaslik, mahsulotni yuvmasdan, sifatini tekshirmasdan isteʼmol qilish kasallikning asosiy omilidir. Shunday ekan, zaharlanishning oldini olish uchun avvalo, ovqatlanish tartibi va gigiyenaga amal qilish lozim.

Mutaxassisning aytishicha, organizmning oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanishi oʻtkir boshlanadi. Uning alomatlari 2 soatdan 12 soatgacha namoyon boʻladi. Bularga qorin qismidagi kuchli ogʻriq, rana haroratining koʻtarilishi, qayt qilish, ich ketishi hamda umumiy holsizlik kiradi.

Kasallik uch xil shaklda, yengil, oʻrta va oʻta ogʻir kelishi mumkin. Yengil holatda bemorda faqat koʻngil aynishi, qorin qismida yengil ogʻriq boʻlishi mumkin. Bunda uy sharoitida koʻp miqdorda qaynatib, iliq darajagacha sovutilgan suvni isteʼmol qilish orqali kasallikni yengish mumkin. Oʻrta va oʻta ogʻir holatlarda isitma chiqishi, tinimsiz qayt qilish, kuchli ogʻriqlar kuzatiladi. Agar sizda shunday alomatlar boʻlsa, zudlik bilan shifokorga murojaat qilishingiz kerak.

Asqar BAROTOV,
“Zarafshon” muxbiri.

Tarix - kelajakka olib oʻtuvchi koʻprik. Shu jihatdan yosh avlodda gʻoyaviy-siyosiy, milliy va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tarixiy badiiy asarlarning oʻrni muhim. Oʻquvchi tarix faniga ilmiylik koʻzi bilan qaraganda, albatta, unda zerikish paydo boʻladi. Badiiy asarlar orqali tarixga murojaat qilganda esa soʻzga, atrof-muhitga boʻlgan qarashlari ham shakllanib boradi. Tilimizning boyligi, soʻz va uning maʼnolari badiiy adabiyot orqali oʻz aksini topadi hamda oʻquvchining tarix, adabiyotni oʻrganishga boʻlgan qiziqishini oshiradi.

“Xalakuning itiday”

Yoki bir mashhur jumlaning tarixiy etimologiyasi haqida

Oʻzbek adabiyotida Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” asarida XIX asr oxiridagi Qoʻqon xonligi davrida roʻy bergan voqealar, Chor Rossiyasi-ning Oʻrta Osiyoga bostirib kirishini adib mohirona tasvirlagani bizga tarixdan darak bersa, uning til xususiyatida soʻzlarning qoʻllanishi, qoʻshimchalar uslubiyaati soʻz sehriga muhabbatimizni oshiradi. Shu sababli ham bu asar hech qachon oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi. Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsinning tarixiy mavzudagi mashhur romanlaridan biri “Temur Malik” (“Xoʻjand qalʼasi”) asari ham shunday asarlar sirasiga kiradi.

Har bir yozuvchi tarixiy asar yozishni oldiga maqsad qilib qoʻyar ekan, u avvalo, tarixni chuqur anglamogʻi, shu bilan birga, til tarixi bilimdoni boʻlishi talab qilinadi. “Temur Malik” asarida qoʻllangan tarixiy atamalar kitobxonni XII asr oxiri va XIII asr boshlaridagi Movarounnahr hayotining jonli kuzatuvchisiga aylantiradi. Asarda xalqimizning boy maʼnaviy xazinasini oʻz aksini topib, milliy qadriyatlarimizni ifodalovchi leksemalar faol qoʻllangan. Xalq ogʻzaki ijodidan olingan fikrlar ijodkor tilida sayqal topadi.

Tarixnavis yozuvchilar odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qoʻllash bilan kifoyalanmay, ularga sharh ham keltiradi. Mirmuhsinda ham bu yaqqol koʻzga tashlanadi.

“Soʻqtu noʻyonning yana bir yuzboshisi - Xalaku edi. Uning yomon bir iti bor: bu it oʻta qopagʻon va doimo koʻchalarda tilini ositirib yugurardi. “Xalakuning itiday...” degan naql ham oʻsha vaqtdan qolgʻan”.

Bu birikma bugungi kunda tilimizda “alakaning itiday” tarzida ifodalanadi. Etimologiyasi koʻpchilikka maʼlum boʻlmasa-da, ogʻizdan ogʻizga oʻtib kelayotgan bu jumla xalq tilida obrazli tarzda oʻz oʻrnida ishlatiladi. Asarda bu kabi iboralarni koʻp uchratish mumkin.

Shu jihatdan badiiy asar tilini tahlil qilish maʼlum bir asar mazmunini, uning gʻoyaviy mohiyatini, yoʻnalishini chuqur oʻzlashtirish, oʻsha davr turmushi, insoniy munosabatlar toʻgʻrisida mushohada yuritishga imkon yaratadi.

D.NEGMATOVA,
Oʻzbekiston-Finlandiya pedagogika universiteti magistranti.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR

“NURLI-ZAMIN ESM” SIHATGOHI SIZNI CHORLAYDI!

Nurobod shaharchasida joylashgan “NURLI-ZAMIN ESM” sihatgohi radonli va maʼdanli suv bilan davolaydi. Sihatgohda asab tizimi, yurak qon-tomir, harakattayanch, teri kasalliklari bilan xastalangan dam oluvchilar sogʻlomlashtiriladi.

Bundan tashqari, maskanda fizioterapiya, parafin-ozokerit, radonli vanna, qadimiy tibbiy davolash uslubi, toshli issiq yoʻlakcha, yogʻoch bochkada asal surib davolash, badantarbiya, uqalash, giyohlardan tayyorlangan damlamalar, parhez ovqatlanish yoʻlga qoʻyilgan. Yotoqxona, raqs va sport maydonchalari dam oluvchilar xizmatida.

Sihatgoh rahbari Salohiddin Ergashev, oliy toifali vrach-kardiolog Mamat Norqulov, oʻz ishonch ustalari hamshira Muxlisa va massajchi Islomjonlarning xizmatidan hamma xursand.

Radonli suv sogʻlom hayot manbaidir.

Sizlarni “NURLI-ZAMIN ESM” sihatgohida kutamiz.

Murojaat uchun telefonlar: (90) 470-76-06, (95) 500-76-06, (93) 720-76-06.



Xizmatlar litsenziyalangan.

TANLOVDA QATNASHING!

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvacilik va biotexnologiyalar universiteti akademik litseyi 2023/2024-oʻquv yili uchun Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdragi “Iqtidorli yoshlarni sakamlash olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4910-sonli qaroriga asosan hamda akademik litseyda qabul kvotasining kamayganligi sababli pedagog-xodimlarni saralash maqsadida tanlov oʻtkazilishini maʼlum qiladi.

Qoʻshimcha maʼlumotlar uchun quyidagi telefon raqamiga qoʻngʻiroq qiling: +99866-231-11-44.

Manzil: Samarqand shahri Mir Said Baraka koʻchasi, 4-uy.

DAʼVOLAR BOʻLSA...

Samarqand shahridagi “EAST BRANCH” masʼuliyati cheklangan jamiyati (STIR: 309761147) “FAR-XOD GAZ QUALITY TRADE” masʼuliyati cheklangan jamiyatiga (STIR: 3057044504) qoʻshilmoqda. “FAR-XOD GAZ QUALITY TRADE” masʼuliyati cheklangan jamiyati “EAST BRANCH” masʼuliyati cheklangan jamiyatining barcha huquq va majburiyatlari boʻyicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha daʼvolar gazetada eʼlon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Farhod qoʻrgʻoni, 1-yoʻlak, 4-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Gaparov Akilga (2008-yil 25-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan

merosxoʻrlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulugʻbek koʻchasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Djurayeva Alime Musta-fayevnaga (2021-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulugʻbek koʻchasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasida marhum Kayumov Nimod-jonga (2020-yil 21-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Muhammadiyev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasida marhum Xolikov Sunnat Sulaymanovichga (2019-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod koʻchasi, 35-uy, 3-xona.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 592 nusxada chop etildi. Buyurtma 318. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda